
Tadbirkor o'z faoliyatini kengaytirmoqda

Qo'shtepa tumani "Paxtakor" mahallasida yashovchi tadbirkor Xusanboy To'xtarov tomonidan mebel, stol-stul hamda bolalar belanchagi ishlab chiqarish faoliyati yo'lga qo'yildi. Natijada oilaning 3 nafar a'zosini bandligi ta'minlandi.

Mahalla hokim yordamchisi tomonidan tadbirkorga faoliyatini yanada kengaytirish uchun "Har bir oila - tadbirkor" dasturi asosida imtiyozli kredit ajratish yuzasidan tavsiyalar berilib, hududni ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha mikro loyihalar ro'yxatiga kiritish choralari ko'rildi.





2024-09-17 08:15:27